

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**

Buxoro davlat universiteti rektori

O.X.Xamidov

2022 yil « 30 » avgust


**QIYOSIY TIPOLOGIYA  
FAN DASTURI  
(IV kurs)**

<b>Bilim sohasi:</b>	<b>100000- Gumanitar soha</b>
<b>Ta'lim sohasi:</b>	<b>120000 - Gumanitar fanlar</b>
<b>Ta'lim yo'nalishi:</b>	<b>5120100 - Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz, nemis, fransuz tili) 5111400 – Xorijiy til va adabiyoti</b>

Fanning o'quv dasturi Buxoro davlat universiteti kengashining 2022 yil "30" "25 sent" dagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Fanning o'quv dasturi Ingliz adabiyotshunosligi kafedrası ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

D.I.Xodjaeva  Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyotshunosligi kafedrası mudiri, PhD

**Taqrizchilar:**

N.R.Qurbonova  Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyotshunosligi kafedrası dotsenti, PhD

F.M.Xajiyeva  Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyotshunosligi kafedrası dotsenti, Ds

Fanning o'quv dasturi Buxoro davlat universiteti kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2022 yil "30" "25 sent" dagi № 1 - sonli bayonnomasi.)

## I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni.

Qiyosiy tipologiya fani ixtisoslik fani sanalib, u talabalarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan oliy va o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchisining til nazariyasi va uning aspektlari bo'yicha nazariy bilimini oshirishga xizmat qiladi.

O'quv fanining asosiy mazmuni "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, davlat ta'lim standarti talablari, 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmonlari, shuningdek 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar va xorijiy tajribalarga suyangan holda bo'lg'usi pedagog kadrlarning tilni nazariy jihatdan puxta egallagan holda amaliy tajribalarini mustahkamlash, takomillashtirib borishni maqsad qiladi. Fanning o'quv dasturi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv rejaga muvofiq tarzda tuzilgan.

Ushbu fan chet til, o'zbek va rus tillarining qiyosiy tahlili hamda tillarning dolzarb muammolari, asosiy yo'nalishlarining nazariy

asoslarini o'rgatishga yo'naltirilgan fandır. Dastur zamonaviy tilshunoslikning nazariy va amaliy ahamiyatga molik aspektlarini yaxlit tizim sifatida o'rganishga undaydi.

"Qiyosiy tipologiya" ixtisoslik fanlari blokiga kiritilgan bo'lib, bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kursida o'qitiladi. Fan tilshunoslikka oid nazariy fanlarning qiyosiy tahliliy asoslarini o'z ichiga olib, qiyoslanayotgan tillarning farqli va o'xshash xususiyatlarini o'zida aks ettirgan ko'nikmalarni fan amaliyotida qo'llashda katta ahamiyat kasb etadi. Qiyosiy tilshunoslik sohasida egallangan bilimlar o'quv jarayonida tilning amaliy ko'nikmalarini takomillashtirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

## II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan asosiy maqsad – talabalarga tilshunoslikka oid bilimlarning nazariy asoslari, qiyosiy tipologiya fanining asosiy tushuncha va kategoriyalari, tamoyillarini o'rgatish, hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarini nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, tilning rivojlanish jarayonlariga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, to'plangan nazariy bilimlarni til amaliyotida qo'llash imkonini beradi.

Fanning vazifalari:

- A) Tilshunoslik tizimida qiyosiy tipologiya fanining ahamiyati va o'rnini aniqlash;
- B) Qiyosiy tipologiya fanining nazariy asoslari bilan tanishish;
- V) Qiyosiy chog'ishtirma metodlari asoslarini o'rgatish.

Shuningdek, mazkur fan tillarning qiyosiy tahlili, qiyoslanadigan tillarning kategoriyalari, tillarning izomorfik va allomorfik tushunchalari, qiyoslanayotgan tillarning miqdoriy chegaralanishi, qiyosiy tipologiyaning rivojlanish tarixi, tipologiyaning turlari, ierarxiya sathlariga ko'ra tipologik turlari, qiyosiy grammatikada kategorizatsiya muammolari, qiyoslanayotgan tillarning fonetik, leksik, grammatik tipologiyasi haqida nazariy va amaliy bilimlar bilan bakalavr talabalarini qurollantirishdan iboratdir.

Fan bo'yicha bakalavr talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi:

Qiyosiy tipologiya fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr talabalariga

qo'yiladigan talablar:

- Qiyosiy tipologiya fanining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, fanning nazariy masalalari va tadqiqot metodlari, qiёslash ob'ektini tanlash, qiёslanaётgan kategoriyalarning ifodalanish usullari va ularning amaliy jihatdan qo'llanilish maqsadini tushunish;

- Qiyosiy tipologik kategoriyalar, dinamik va turg'un tushunchalar, qiyosiy universalialar, meta(etalon)til, tipologik tasniflarni bilishi va ulardan til amaliyotida foydalana olishlari zarur.

Shu bilan bir qatorda bakalavrlar:



- muayyan nazariy masalalarga oid fikrlarni bayon etish, mavjud fikrlarga nisbatan tanqidiy munosabatini asoslay olish, tillararo izomorf va allomorf xususiyatlarni tahlil qila olish;

- ma'ruzalar davomida olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, til jarayonlarini tahlil qilish usullarini qo'llash, mustaqil holda qiyosiy tilshunoslik sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-mavzu. Qiyosiy tipologiya fan sifatida

Qiyosiy tipologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.  
Qiyosiy tipologik tadqiqotlar tahlili.

2-mavzu. Qiyosiy tipologiya fanining asosiy davrlari va rivojlanish omillari

J.Buranov va boshqa tilshunos olimlarning tipologik klassifikatsiyalari.

3-mavzu. Qiyosiy tipologiyaning aspektlari va asosiy parametrlari

4-mavzu. Til obektiga nisbatan lingvistik tipologiyaning bo'linishi

5-mavzu. Til ierarxiyasi darajalarini tekshirish obekti va lingvistik tipologiyaning bo'linishi

Morfologik tipologiyaning ob'ekti. Qiyosiy tipologiyaning boshqa bo'limlar bilan korrelyatsiyasi. Morfema va allomorf. Analitik va sintetik tillar tushunchasi. Tillarning tipologik klassifikatsiyasi.

6-mavzu. Tipologik kategoriyalashtirish muammosi

So'z turkumlarini tasniflash. So'z turkumlarining grammatik tipologiyasi.

7-mavzu. Xorijiy tillarni tekshirish usullari va yo'llari

8-mavzu. Fonologik tizim tipologiyasi

Qiyoslanayotgan tillarning fonetik aspektlari qiyosi; Fonologik tizimlarni qiyoslash

9-mavzu. Grammatik tizim tipologiyasi

Gap va uning mazmun va tuzilishiga ko'ra turlari. Gapni turlarga ajratish mezonlari. Gaplarni tasniflash. Qiyoslanayotgan tillarda gap turlari

10-mavzu. Tipologiya grammatik kategoriyalar

Qiyoslanayotgan tillarning grammatik kategoriyalari. Grammatik kategoriyalar mazmuni va shakli.

11-mavzu. Qiyoslanayotgan tillarda so'zlarning qiyosiy tahlili

Leksik tipologiyaning ob'ekti va maqsadi. Leksik tipologiyaning qiyosiy tipologiya bilan aloqasi. Lingvistikada "leksikon" tushunchasi. Leksik tipologiyaning bo'limlari. "Leksik maydon" va "domin" tushunchalarining tipologik kategorizasiyasi.

12-mavzu. O'zbek/rus va o'zbek tillari leksik tizimlarining qiyosiy tahlili

So'z til birligi sifatida. So'zning sintagmatik va paradigmatic munosabatlari. So'zning semantik tasnifi. So'zni tuzilishiga ko'ra turkumlash.

13-mavzu O'zbek/rus va o'zbek tillarida so'z shakllanishi

Lingvistikada so'z yasalishi. Qiyoslanayotgan tillarda so'z yasalish turlari. Qiyoslanayotgan tillarda so'z yasalishidagi o'xshashlik va farqlar.

#### 14-mavzu. O'zbek/rus va o'zbek tillarining sintaktik tizimlari tipologiyasi

Qiyoslanayotgan tillarda so'z birkmasini tasniflash va ularning tuzilishi. So'z birkmalari komponentlarining o'zaro munosabati.

Sintaksis haqida ma'lumot. Sintaktik darajalarni tasniflash. Qiyoslanayotgan tillarning sintaktik darajalari tipologiyasi.

#### 15-mavzu. Tilshunoslikning leksik tipologiyasi va boshqa nazariy va amaliy tarmoqlarining o'zaro hamkorligi

#### IV. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Qiyosiy tipologiya fan sifatida.
2. Qiyosiy tipologiyaning klassifikatsiyasi.
3. Qiyosiy tipologiyaning aspektlari.
4. Chet til va ona tilining fonetik va fonolik tizimlari tipologiyasi.
5. Chet til va ona tilining morfologik tipologiyasi.
6. Chet til va ona tilida so'z turkumlari klassifikatsiyasi.
7. Chet til va ona tilida sintaktik darajalar tipologiyasi.
8. Chet til va ona tilida so'z birkmasi (ibora)lar tipologiyasi.
9. Chet til va ona tilida gap tipologiyasi.
10. Chet til va ona tilida leksik birliklar (darajalar) tipologiyasi.
11. Chet til va ona tilida so'zlarning qiyosiy tahlili.
12. Chet til va ona tilida so'z yasash turlarining qiyosiy tahlili.
13. Qiyosiy tipologiya bilan lingvistikaning antroposentrik yo'nalishi o'rtasidagi munosabatlari.
14. Chet til va ona tilida madaniy "konsept" tushunchasi.
15. Qiyoslanayotgan tillarda Gender lingvistikasi tipologiyasi.

#### V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qiyosiy tipologiya tarixi;
2. Lingvistik tipologiya yo'nalishlarini aniqlashning asosiy parametrlari;
3. Genetik va geneologik tipologiya;
4. Struktural tipologiya va uning bo'limlari;
5. Qiyosiy tipologiya va uning o'ziga xosligi;

6. Tilning ifodalanishi va mazmuniga tegishli qiyosiy tipologiya yo'nalishlari;
7. Tilshunoslikda kategorizasiya masalasi;
8. Ingliz, o'zbek va rus tillarida ko'plik kategoriyasining tipologiyasi;
9. Tillarning tipologik tasnifi;
10. Tillarning morfologik tasnifi;
11. Qiyosiy universalialar;
12. Tilning areal tasnifi;
13. Tillarning geneologik tasnifi;
14. Semantik tipologiya;
15. Sintaktik tipologiya;
16. Qiyosiy tipologiyaning qiyosiy va madaniy xususiyatlari.

“Qiyosiy tipologiya” fani mustaqil ish mavzulari doirasida ta'limning interfaol metodlari, kommunikativ yondashuvlarga tayangan holda talabalarni ma'lumotlarni ta'lim jarayonida faollashuvi, mustaqil fikrlashi, fikrini erkin bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bunga asosan o'qituvchi va talabalarning ma'lum bir nazariy va amaliy muammolarning yechimini topish bo'yicha erkin fikr almashishlarini, tanqidiy fikrlashlarini nazarda tutadi. Interfaol metodlarning quyidagi turlaridan keng foydalaniladi:

- guruhli muzokaralar (Group Discussion)
- jamoa loyihalari (Project Work)
- juftliklar bo'lib topshiriqlarni bajarish (Pair Work)
- yakka holda ma'lum mavzu bo'yicha prezentasiyalar qilish (Individual Presentation)
- davra suhbatlarini o'tkazish (Round-Table Discussion)
- insert texnikasi (Insert Technique)
- Pinbord texnikasi (Pinboard)
- Keys- stadi (Sase-study)
- aqliy hujum (Vrainstorming) va hakoza.



## Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

### Asosiy adabiyotlar

1. Buronov J. Sravnitel'naya tipologiya angliyskogo i tyurkskix yazykov. M., Vysshaya shkola 1983.
2. YUsupov O'. Ingliz va o'zbek tillarining chog'ishtirma lingvistikasi. - Toshkent, Akademiya nashri, 2013
3. V.D.Arakin. Sravnitel'naya tipologiya angliyskogo i russkogo yazykov. Leningrad, 1979.
4. J. J. Bo'ronov " Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi". Toshkent, 1973.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Tursunov U. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T., 1975.
2. Zikrillaev G'. O'zbek tili. - T., 2004.
3. Raxmatullaev Sh. O'zbek va rus tillarini qiyoslash. - T., 1993.
4. Reformatskiy A.A. Vvedenie v yazykoznanie. - M., 1955.
5. Shevyakova V.E. Sovremennoy angliyskiy yazyk. - M., 1980.
6. Yuldashev A.A. Analiticheskie forma glagola v tyurkskix yazykax. - M., 1980.
7. Azizov O., Safarov A. Jalolxonov X. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. - T., 1986.
8. Smirniyskiy A.I. Morfologiya angliyskogo yazyka. - M., 1959.
10. Karashuk P.M. Slovoobrazovanie angliyskogo yazyka. - M., 1977.
11. Lopatin V.V. Russkoe slovoobrazovanie Morfemika. - M., 1977.
12. Mirzaev M. O'zbek tili. - 1970.
13. Abrajeeva A.I. Sravn. analiz grammaticheskogo stroya russkogo i uzbekskogo yazykov. - Samarkand., 1962.
14. Korneeva Ye.A. Posobie po morfologii angliyskogo yazyka. - M., 1974.
15. Rojdestvenskiy Yu. V. Tipologiya slova.

### Internet saytlari

1. Website dedicated to linguistics: [www.linguist.org](http://www.linguist.org)
2. Russkiy filologicheskii portal: [www.philology.ru](http://www.philology.ru)
3. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
4. [www.dissercat.ru](http://www.dissercat.ru)
5. [www.nauka.ru](http://www.nauka.ru)
6. [www.dissorg.com](http://www.dissorg.com)
7. [www.uzscience.uz](http://www.uzscience.uz)